



2019 yilning yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimiz korxonalarini tomonidan 44 540,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 104,5 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 110,2 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoati - 102,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 125,9 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish - 81,5 % ga o'sish hisoblanadi.

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



*Sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlat,xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsliflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 029,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,3 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 36 716,5 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 82,4 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi - 0,4 % ni, o'rta-yuqori texnologiyali - 6,0 %, o'rta-quyi texnologiyali - 84,7 % va quyi texnologiyali 8,9 % tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi

2019 yil yanvar-dekabr



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sohasining ulushi - 5,7 %, metallurgiya sanoatining ulushi - 75,0 %, oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,9 %, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 6,2 %, to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 4,7 % ni tashkil etdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2018 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	---	--	-------------------

Portlandsement, ming tonna

3 571,0



3 636,0

101,8

So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak , tonna

38 389,5



56 430,0

147,0

Ammoniy nitrat, ming tonna

227,35



235,65

103,7

<i>2018 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan</i>	<i>Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari</i>	<i>2019 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
---	--	---	--------------------------


Temir beton, tonna

43 400,4



45 089,0

103,9



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 729,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,1 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 64,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ni) tashkil etdi.



***Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

<i>2018 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan</i>	<i>Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari</i>	<i>2019 yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
--	---	--	---------------------------------

Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom-ashyo, tonna

48 297,0



31 844,0

65,9

Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm

13 818,1




20 783,5

150,4


Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

	2019 yil yanvar-dekabr, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yil yanvar-dekabrga nisbatan FHI, %
Navoiy viloyati	44 540,4	100,0	104,5
Navoiy sh	36 827,2	82,7	106,2
Zarafshon sh	247,8	0,6	102,0
<i>tumanlar</i>			
Karmana	4 656,1	10,4	129,7
Konimex	292,5	0,7	152,7
Qiziltepa	893,0	2,0	107,0
Navbahor	468,8	1,0	118,8
Nurota	309,0	0,7	112,1
Tomdi	48,1	0,1	113,4
Uchquduq	115,1	0,3	111,7
Xatirchi	682,8	1,5	114,0

2019-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha sanoat mahsulotlarining ulushi, %




2019-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish indeksi 2018-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, %



Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida, Konimex (2018-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 152,7 %), Karmana (129,7 %), Navbahor (118,8%), Xatirchi (114,0 %), Tomdi (113,4 %) tumanlarida va Navoiy shahrida (106,2 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 3 350,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 104,9 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 7,5 % ni tashkil etdi.




Shu bilan birga Konimex (2018-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 109,2 %), Qiziltepa (107,4 %), Navbahor (107,4 %), Uchquduq (106,1 %), Xatirchi (105,1 %) va Nurota (103,3 %) tumanlarida iste'mol tovarlarini ishlab chiqarilishi sezilarli darajada oshdi.


**2019-yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

	2019 yil yanvar-dekabr, mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yil yanvar-dekabrga nisbatan o'sish, %
Navoiy viloyati	3 350,2	100,0	104,9
Navoiy sh	962,4	28,8	105,1
Zarafshon sh	201,9	6,0	107,4
<i>tumanlar</i>			
Karmana	498,4	14,9	100,1
Konimex	84,7	2,5	109,2
Qiziltepa	428,1	12,8	107,4
Navbahor	275,1	8,2	107,4
Nurota	245,9	7,3	103,3
Tomdi	37,6	1,1	101,4
Uchquduq	104,3	3,1	106,1
Xatirchi	511,8	15,3	105,1

**Yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmining tarkibi, %**



2019 yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi




Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan mahsulot ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1 029,7 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 2,3 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatdagi ulushi, %

2018 yil yanvar-dekabr




2019 yil yanvar-dekabr




- ***Viloyatning boshqa korxonalari***
- ***Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalari***

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining
sanoatdagi ulushi, %**



2019-yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mollari ishlab chiqarish, ming so'm



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy shahrida (257 893,8 ming so'm), Karmana (37 518,6 ming so'm), Konimex (8 286,7 ming so'm) va Qiziltepa (5 937,2 ming so'm) tumanlarida ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mollari ishlab chiqarilishi Navoiy shahrida - 6 739,2 ming so'mni, Karmana tumani - 4 016,5 ming so'mni, Qiziltepa tumani - 2 846,7 ming so'mni, Uchquduq tumani - 2 805,4 ming so'mni, Nurota tumani - 2 678,5 ming so'mni va Xatirchi tumanida – 2 595,2 ming so'mni tashkil etdi.

	Sanoat mahsulotlari, ming. so'm		Istemol mollari, ming. so'm	
	2018 yil	2019 yil	2018 yil	2019 yil
Viloyat bo'yicha	23 568,8	45 067,7	2 603,0	3 389,9
<i>shahar</i>				
Navoiy	135 348,3	257 893,8	5 642,0	6 739,2
Zarafshon	2 434,5	2 981,5	1 793,1	2 429,5
<i>tumanlar</i>				
Karmana	19 783,9	37 518,6	3 030,8	4 016,5
Konimex	1 782,5	8 286,7	1 680,8	2 398,4
Qiziltepa	4 501,4	5 937,2	2 130,3	2 846,7
Navbahor	2 692,5	4 193,2	1 710,8	2 460,7
Nurota	2 363,6	3 366,5	2 032,8	2 678,5
Tomdi	2 460,0	3 294,4	2 104,3	2 573,3
Uchquduq	2 309,6	3 093,5	2 138,1	2 805,4
Xatirchi	2 317,6	3 462,7	1 958,9	2 595,2

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 5 740,5 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Hisobot davrida kichik korxonalarining umumiyl ishlab chiqarishdagi ulushi 12,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznes ulushi




2019 yanvar-sentabr 12,3 %

2019 yanvar-oktabr 12,6 %


2019 yanvar-noyabr 12,8 %

2019 yanvar-dekabr 12,9 %

Kichik biznes ishlab chiqargan sanoat mahsulotlar hajmi, mlrd. so'm



2019 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Navbaxor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Nurota (100,0 %), Tomdi (100,0 %), Uchquduq (99,6 %), Xatirchi (99,3 %), Qiziltepa (90,1 %) tumanlarida va Zarafshon shahrida (86,0 %) kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Navoiy shahrida (2,1 %), Konimex (29,5 %), Karmana (48,6 %) tumanlarida kuzatildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi

Viloyatimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish. Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 110 ta loyiha bo'yicha 726,4 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 814,65 ming. AQSH dollari miqdorida mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 9 ta yangi ish o'rirlari yaratildi.

O'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 2019 yil yanvar-dekabr oylarida mahalliylashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmi pasayishi kuzatildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari


	2018 yil yanvar-dekabr	2019 yil yanvar-dekabr
Loyixalar soni, <i>birlik</i>	65	110
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	14	14
Ishlab chiqarish xajmi, <i>mln.so'm</i>	257 844,7	726 371,23
Shu jumladan eksportga sotilgan, <i>ming AQSHdoll.</i>	1 757,6	814,65
Yaratilgan yangi ish o'rirlari, <i>birlik</i>	2	9

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 2 833 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 653 tasi (mavjud korxonalar umumiyligi sonining 23,0%) Navoiy shahriga, 452 tasi (16,0%) Karmana tumaniga, 361 tasi (12,7 %) Xatirchi tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik


(2020 yil 1-yanvar holatiga)



2019 yil yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 1 414 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, ularning 19,0 foizi Xatirchi tumaniga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni, birlik

(2020 yil 1-yanvar holatiga)



Navoiy viloyati statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi
telefoni: (436) 223-33-29